Nurullayev Hayotjon Umidjonovich (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi; nurullayevhayot@gmail.com)

MA'NAVIY TAHDIDLARNING IQTISODIY JARAYONLARGA TA'SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jahonda ma'naviy tahdidlarning taraqqiyotga ta'siri va unga qarshi kurashni rivojlantirish, mafkuraviy, g'oyaviy va ma'naviy tahdidlar tushunchalarining genezisi, zamonaviy harakat mexanizmi, siyosiy maqsadlari, xalqaro munosabatlarga tahdidi, Yer yuzi aholisini doimo tashvishga soladigan tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm va terrorizm, radikalizm, diniy fundamentalizm, separatizm, irqchilik va ekstremizm mafkuralari bilan bog'liq harakatlarning oldini olish, unga qarshi kurashishning dunyo tajribasi, mafkuraviy, g'oyaviy va ma'naviy tahdidlarning dunyo miqyosida global tahdid sifatida namoyon bo'lishi, ma'naviy, g'oyaviy-mafkuraviy muammolarning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri to'g'risida fikr-mulohazalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *ma'naviy tahdid, mafkura, iqtisodiyot, radikalizm, diniy, irqchilik va ekstremizm, korrupsiya, inson kapitali, iqtisodiy muammolar.*

Нуруллаев Хаётжон Умиджонович (Республиканский центр духовности и просвещения Социально-духовные исследования; независимый исследователь; nurullayevhayot@gmail.com)

ВЛИЯНИЕ ДУХОВНЫХ УГРОЗ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ

Аннотация. *В статье рассматривается влияние духовных угроз на развитие в мире и развитие борьбы с ними, генезис понятий идеологических, мировоззренческих и духовных угроз, механизм современного действия, политические цели, угроза международным отношениям, агрессивный национализм и шовинизм, неофашизм и терроризм, радикализм, религиозный фундаментализм, мировой опыт профилактики и борьбы с движениями, связанными с идеологиями расизма, ксенофобии и экстремизма, проявление идеологических, мировоззренческих и духовных угроз как глобальной угрозы в мировом масштабе, влияние духовных, мировоззренческих и мировоззренческих проблем на экономику страны.*

Ключевые слова: *духовная угроза, идеология, экономика, радикализм, религиозный, расизм и экстремизм, коррупция, человеческий капитал, экономические проблемы.*

Nurullayev Hayotjon Umidjonovich (Independent Researcher at the Institute of Social and Spiritual Research of the Republican Center for Spirituality and Enlightenment; nurullayevhayot@gmail.com)

THE IMPACT OF SPIRITUAL THREATS ON ECONOMIC PROCESSES

Annotation. *The article examines the influence of spiritual threats on development in the world and the development of the fight against them, the genesis of the concepts of ideological, ideological and spiritual threats, the mechanism of modern action, political goals, threats to international relations, aggressive nationalism and chauvinism, neo-fascism and terrorism, radicalism, religious fundamentalism, world experience in preventing and combating movements associated with the ideologies of racism, xenophobia and extremism, the manifestation of ideological, ideological and spiritual threats as a global threat on a global scale, the influence of spiritual, ideological and ideological problems on the country's economy, Opinions are expressed about the secret.*

Key words: *spiritual threat, ideology, economy, radicalism, religious, racism and extremism, corruptтion, human capital, economic problems.*

Kirish (Introduction). Ma'lumki, jahon siyosiy xaritasida ko'plab davlatlar mavjud. Ularning har biri o'z qarashlari asosida turli siyosiy kuchlar, partiyalar, din va diniy oqimlar, mazhablar, guruh va qatlamlar faoliyat ko'rsatadi. Shu ma'noda, turli davlatlarning o'zaro farqlanadigan, ba'zan bir-biriga zid bo'lgan manfaatlari bor. To'g'ri, XX asrga kelib, hududiy daxlsizlik masalasi kun tartibiga chiqdi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan keyingi umumiy holat shuni taqozo qilar edi. Shu sababli xalqaro munosabatlarni shakllantirish yo'lida dunyo hamjamiyati keng miqyosda faoliyat olib bordi. Qirg'inbarot urushlariga imkon qadar barham berildi. Ochiqdan ochiq bir davlatning ikkinchi davlat yerlariga bostirib kirishi yoki harbiy harakatlarni olib borishi xalqaro huquq me'yorlari asosida ta'qiqlandi. Davlatlar, xalqlar, millatlar o'rtasida tenglik, hurmat va manfaatli hamkorlik qilish masalalari hal qilindi. Ammo bu jahon hamjamiyatining barcha davlatlari, xalqlari tinchlik yo'liga kirdi, endi hamma hamkorlik yo'lidan boradi degani emas. Bugungi ko'rinmas kuchlar boshqa davlatlarning yerlari, boyliklarini tasarruf qilish fikridan qaytgani yo'q. Faqatgina endi o'sha urushlarning yangicha zamonaviy turlari paydo bo'ldi. Bulardan yagona maqsad manfaatlar masalasi ekani barchaga ayon.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Ushbu maqola tadqiqot obyekti sifatida olingan ma'naviy tahdidlarning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini yoritishda biz, "O'zbek tilining izohli lug'ati", O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" va "Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasi" asarlari, faylasuflardan Aflotunning "Qonunlar" kitobi, Q.N.Nazarovning "Jahon falsafasi qomusi", II jild, Sh.N. To'rayevning "Milliy g'oya va mafkuralar tarixi" kabi ilmiy adabiyotlar tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) Ushbu tadqiqot ishini yoritishda tarixiylik va mantiqiylik, tizimli tahlil, sotsiologik so'rov, qiyosiy tahlil, vorisiylik, sinergetik va dialektik ilmiy bilish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). "Ma'naviy" deganda insonning ichki dunyosi, ongi va qalbi nazarda tutiladi [2]. "Tahdid" deganda esa, yuqorida qayd etganimizdek, hadik, tajovuz qilish, yo'ldan chiqarishga asoslangan xavf-xatarlar majmui tushuniladi [3]. Tahdid xavf-xatardek darhol ko'zga tashlanmasligi, uzoqni ko'zlashi va xavf-xatarga nisbatan zarari koprligi bilan farq qiladi [4]. Shu ma'noda, "Ma'naviy itahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan iqat'iy nazar, har qaysi odamning itom ma'nodagi erkin inson ibo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish imaqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim".

Ma'naviy tahdidlarning tahlil qilingan ta'riflaridan kelib chiqib, ularni quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq bo'ladi: 1) ma'naviy tahdidlarning xususiyatlari: til tanlamaydi, din tanlamaydi, e'tiqod tanlamaydi. O'zgacha aytganda, ma'naviy tahdidlar odamning qaysi tilda so'zlashi, qaysi dindaligi va e'tiqodining qandayligidan qat'iy nazar, insonga daxl qiladi; 2) ma'naviy tahdidlarning zarari: inson erkinligiga daxl qiladi, insonning ruhiy dunyosini izdan chiqaradi, maqsadli amalga oshiriladi; 3) ma'naviy tahdidlarning turlari: mafkuraviy, g'oyaviy; informatsion. Bularni jadvalda shunday tasavvur qilish mumkin. Ma'naviy tahdid – bu butun insoniyatning o'ziga xos bo'lgan umuminsoniy va milliy axloq-odob me'yorlari, urf-odat, an'analari, qadriyatlari, madiniyati, tili, dini va milliyligiga yot bo'lgan, insonni insoniy fazilatlardan chetlatadigan va belgilangan axloq-odob me'yorlaridan og'diradigan, ularning yemirilishi yohud oyoq osti bo'lishiga sabab bo'lib, jamiyatning ma'naviy qiyofasini o'zgartirib yuboradigan tushunchalarga aytiladi.

Yoshlarning ongi va ichki dunyosini egallashga intiladi, ularning dunyoqarashiga zararli fikrlarni tiqishtiradi, oxir-oqibatda, mamlakat xavfsizligiga va milliy manfaatlarga tahdid solib, jamiyatni inqiroz sari yetaklaydi. Ma'naviy tahdid insonlarni g'oyaviy qaram qilish, ruhiy dunyosini izdan chiqarishga qaratilgan bo'lib, u jozibali shiorlar va g'oyalar ostida yashirinadi, diniy va milliy rishtalarga bolta uradi.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Dunyo shiddat bilani o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam irivojlanishiga rahna soladigan iturli tahdid va xavflar paydoibo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, iyoshlarning bilim olish, ikamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham imuhimdir" [1]. Barcha zamonlarda ma'naviy tahdidlarning turli ko'rinishlari mavjud bo'lib, asrlar davomida uni bartaraf qilishga doir qarashlar tizimi vujudga kelgan. Albatta, ijtimoiy-falsafiy va ilmiy adabiyotlarda ma'naviy tahdidlar tushunchasi davr taqozosi va tarixiylik nuqtayi nazardan "tahdid", "xavf-xatar", "qo'rquv" kabi bir necha atamalar bilan tilga olingan. Buni e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi. Bu o'rinda ma'naviy tahdidlarni bartaraf qilishga doir eng muhim qarashlarni tahlil qilish bilan cheklanamiz.

Ma'naviy tahdidlarni bartaraf qilish bilan bog'liq qarashlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, hozirgi ma'naviy-mafkuraviy faoliyatimizda metodologiya vazifasini o'taydi. Binobarin, falsafiy-tarixiy va ma'naviy merosda donishmandlar, mutafakkirlar tomonidan ma'naviy tahdidlarni bartaraf qilishga doir muhim fikr-mulohazalar bildirib o'tilgan. Ulardan biri Platondir. Faylasufning fikricha, insonning ma'naviy olamini shakllantirish uchun uning ruhini (ongini) va qalbini himoya qilib borish kerak [4]. Demak, bu qarashga ko'ra, ma'naviy tarbiya vositasida ma'naviy tahdidlarni bartaraf etish mumkin. Ma'naviy tarbiya inson ruhiyatida ezgu maqsad-muddaolarni shakllantirish va qalbida esa ma'naviy jasoratni hosil qilishdir. Ma'naviy tahdidlarni bartaraf qilishga doir muhim yo'nalishlar milliy merosimizda yetarli darajada ishlab chiqilgan. yuritib o'tish maqsadga muvofiq [5].

Shunday ekan, ma'naviy tahdidlar barcha zamonlarda ham insonning ongu tafakkuriga nisbatan tahdid sifatida namoyon bo'lgan. Binobarin, ma'naviy tahdidlar faqat inson tomonidan yaratiladi va faqat insonga ta'sir o'tkazishi bilan zararlidir. Bunday tahdidlarning yana bir o'ta xatarli jihati globallashuv jarayonlariga o'tkazayotgan ta'siri bilan bog'liq. Ma'lumki, globallashuv jarayoni insonga mafkuraviy-ma'naviy tahdid o'tkazishning o'tkir quroliga aylanib bormoqda. Bu tahdid inson erkinligini bo'g'ish, fikriy mutelikni qo'llab-quvvatlash, turli-tuman jozibador shiorlar orqali uning ruhiyatiga mafkuraviy, g'oyaviy va

informatsion xurujlar ko'rinishida daxl qilmoqda, xalqlarning milliy va diniy ildizlariga xavf solmoqda.

Insoniyat bir qator global muammolarni – ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy yo'nalishdagi tahdidlarni hal qilish yo'lini topish, ularga qarshi tura olish usul va vositalarini ishlab chiqishga harakat qilmoqda. Bunga qarama-qarshi o'laroq mamlakatimizda yoshlar madaniyati va ma'naviy saviyasiga salbiy ta'sir o't-kazuvshi tahdidlarga qarshi kurash mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Ammo bugungi holatda birgina qarorlar va dasturlarni amalga oshirish bilan muammoning yechimini bartaraf etish mushkul. Bugun butun jamiyat birgalikda, ta'bir joiz bo'lsa, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilmasa, oqibati og'ir keshishi tayin.

Axborot texnologiyasi vositalari globalizatsiya jarayonida katta rol o'ynaydi. Yer yuzining aksariyat aholisi mazkur vositalar yordamida dunyoning istalgan nuqtasida sodir bo'layotgan hodisalardan tez fursatlarda xabardor bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Texnikaning jadal sur'atlarda rivojlanishi, insoniyat hayoti va faoliyatida texnikaning rolini ortishi, turli-tuman mahsulotlar dunyo miqyosida tarqalishi, xalqlar o'rtasida madaniy aloqalarning kuchayishi, ommaviy kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi natijasida hozirgi kishilik jamiyati tobora global xususiyat kasb etmoqda. Darhaqiqat, hozirgi axborot, kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari asrida, jozibadorligi bilan hammani o'ziga tobe' qilib borayotgan internet kundan kunga hayotimizning barcha jabhalariga chuqur va keng kirib borayotgan, kishilarning ongi va tafakkuri uchun kurash ustuvor ahamiyat kasb etayotgan bir vaziyatda bunday masalalarning davlatimiz va jamiyatimiz uchun naqadar dolzarb va muhim ahamiyatga ega bo'lib borayotgani hammamizni tashvishga solishi lozim.

Bugungi kunda insoniyatning o'sib borayotgan texnik qudrati bilan uning texnik taraqqiyot oqibatida halokatga uchrashi xavfi, axborot texnikasi yordamida madaniyatning ravnaq topishi bilan ma'naviy-madaniy qadriyatlar inqirozi, ilmiy bilish sohasidagi ulkan yutuqlar bilan eng g'ayriilmiy mistik oqimlarning tiklanishi, demokratiya tamoyillarining shakllanishi bilan mustabid tuzumlarning hukm surishi, tinchlik tamoyillarining mustahkamlanishi bilan yer kurrasining turli qismlarida sodir bo'layotgan harbiy mojarolarning to'qnashuvi kuzatilmoqda.

Globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlar asosan, zamonaviy axborot texnologiyalari orqali tarqatilayotgani hech kimga sir emas. Eng qo'rqinchlisi bu jarayonni to'xtatishning imkoni yo'q. Bugun texnika va texnologiyalar rivojlangan mamlakatlar ham bu muammo oldida ko'plab qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Afsuski, ularni bartaraf etishning ilojisi hali topilgani yo'q. Shuning uchun aksariyat davlatlar o'z e'tiborlarini yoshlar tarbiyasiga qaratayotgani ham bejiz emas. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev bu masalaga jiddiy e'tibor qaratib, shunday deydi: "...biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat xazinasi bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz" [1].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). So'nggi yillarda mamlakatimizga nisbatan ham axborot-psixologik tahdidlar sodir etilmoqda. Jahon geosiyosatida xalqlarni ma'naviy-mafkuraviy jihatdan tobe' etishga intilishi va bugungi kunda dunyoni shunday asosda ibo'lib olishga urinishlar davom ietmoqda. Buning uchun ular hozirgi zamon ommaviy axborot vositalari, ularning iyutuqlaridan hamda turli xil markazlar, ayni paytda, o'zaro hamkorlikka yo'naltirilgan ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy vositalardan foydalanish orqali dunyoning turli hududlarida o'zlariga mos mafkuraviy muhitni shakllantirish maqsadlarini ham ko'zlamoqdalar.

Barchamiz bugungi hayot oldimizga qo'yayotgan bir haqiqatning ma'no-mazmunini tushunishimiz zarur. Bu haqiqat shundan iboratki, agarda kimda-kim bizning mustaqil taraqqiyot yo'limizni, orzu-maqsadlarimizga erishish yo'lini, yangi jamiyat qurish yo'lini to'smoqchi bo'lsa, avvalo, mustaqil dunyoqarashi shakllanib ulgurmagan yoshlarimizning qalbi va ongining zaifligidan foydalanib, ularning ma'naviyatini buzib, bizning azaliy tabiatimizni va muqaddas odatlarimizga mutlaqo zid bo'lgan g'oyalar bilan chalg'itib, o'zining g'arazli va jirkanch niyatlarini amalga oshirish yo'lida qurol qilib olishga urinadi. Aynan shunday vaziyatlarda O'zbekiston siyosatining bosh yo'nalishi bevosita xavfsizlikka qaratilgan bo'lib, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining iqtisodiy va ijtimoiy asoslarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz o'rgangan ma'naviy xavf-xatarlar orasida iqtisodiy sabablar ortdidan paydo bo'lish holatlari, ko'pincha, paydo bo'ladi. Boisi, bozor iqtisodiyoti rivojlangani sari unga, dastlab, xos bo'lgan tarqoqlik, stixiyalik, alohidalashuv, o'z manfaatini ustun qo'yish kabilar kuzatiladi. Bu xavf-xatarni ijtimoiy beqarorlik ham hosil qiladi. Ijtimoiy munosabatlardagi keskinlik, ishsizlik va qonunga itoat etmaslik kabi hodisalar iqtisodiyotga ta'sir etmasligi yaqin muddat va uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyalarida, avvalo, milliy

iqtisodiyot ko‘lamini kengaytirish va sur’atlarini oshirish maqsadini ko‘zlash hamda doimo millat manfaatlari ustuvor o‘rinlarda turishi ma’naviy xavfsizlik masalalariga chuquqr tizimli faoliyatni olib borish orqali erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2018, 1-tom, 592–593-betlar.

(2). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildlik. 3-jild, Toshkent, “Fan”, 2008, 91-bet.

(3). Q.Nazarov. Jahon falsafasi qomusi. 2-tom, Toshkent, O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2022, 300-bet.

(4). Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, “O‘zbekiston”, 1997, 4–13-betlar.

(5). Aflotun. Qonunlar. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2002, 10-bet, U.Otajonov tarjimasi.

Dehqonova Saida Keldiboevna (Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi)

ADOLAT UNIVERSAL KATEGORIYA SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada adolat tushunchasining falsafiy va huquqiy talqinlari, mazmun-mohiyati, baholovch tushuncha ekanligi hamda uning universal kategoriya ekanligi yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *adolat, falsafa, huquq, kategoriya, baholovchi tushuncha, universal kategoriya.*

Дехконова Саида Келдибаевна (исследователь, Гулистанский государственный университет)

СПРАВЕДЛИВОСТЬ КАК УНИВЕРСАЛЬНАЯ КАТЕГОРИЯ

Аннотация. *В данной статье раскрываются философско-правые интерпретации понятия справедливости, его сущность в качестве оценочного понятия и его универсальная категория.*

Ключевые слова: *справедливость, философия, право, категория, оценочное понятие, уни-версальная категория.*

Dehqonova Saida Keldiboevna (independent researcher at Gulistan State University)

JUSTICE AS A UNIVERSAL CATEGORY

Annotation. *This article reveals the philosophical and legal interpretations of the concept of justice, its essence, the fact that it is an evaluative concept and its universal category.*

Key words: *justice philosophy, law, category, key concept, universal category.*

Kirish. Ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixida shunday ma’nodar va tagdor tushunchalar mavjudki, ular mazmun-mohiyati, jozibasi, asli, qamrovi va murakkabligi asrlar osha o‘z mazmunini, ahamiyatini yo‘qotmaydi. Odomzod o‘yga, soladi, mulohaza va mushohadaga undaydi. O‘shanday qanotli va hikmatli tushunchalardan biri adolat tushunchasidir. Bunday tushunchalar kishilik jamiyatida hali urug‘chilik tuzumi davridayoq qaror tapa boshlab, butun tafakkur tarixi davomida istemolda bo‘lib, o‘zgarib, yangi-yangi ma’no kasb etib kelgan va keladi. Shunday tushunchalardan biri “Adolat” tushunchasidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu mavzuda professorlar: H.Aliqulov “Adolat buyuk donishmandlar talqinida”, Q.Nazarov “Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati”da, AXolbekov “Raqamli jamiyatda ijtimoiy adolatning amalga oshirish imkoniyatlari” va tadqiqotchi Z.Alimova “Ijtimoiy adolat tamoyillari va uning islom dinida namoyon bo‘lish xususiyatlari” mavzularida tadqiqotlar olib borishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada qiyosiy tahlil, tarixiylik, mantiqiylik analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimlilik usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Adolat tushunchasining: tenglik, barobar, ekvalent, adl, mos, simmetriya, dangal, ro‘y-rost, rosti, chin, insof, indallo, asli, qiyosi, haq, haqiqat, odil, tarozi pallasi, to‘g‘ri, halol kabi talqinlari ham bo‘lib, u “baxt”, “tenglik”, “tinchlik”, “ozodlik” tushunchalari kabi kishilarning talobotini o‘zida ifoda etadi.

Adolat, avvalo, axloqiy-huquqiy va ijtimoiy-siyosiy, ilmiy kategoriya hisoblanadi. Adolat alohida kishi yoki ijtimoiy guruhning amaliy faoliyati bilan taloboti va ularning ma’naviy holati o‘rtasidagi munosabatlarning mosligini ifodalovchi tushunchadir. Jamiyatning shaxsga munosabati, shaxsning jamiyatga munosabati, shaxsning boshqa shaxsga munosabati bo‘lishi mumkin. Demak, adolat jamiyat va shaxs, shaxs va jamiyat, shaxs va boshqa shaxslar o‘rtasidagi ma’naviy voqelikdagi munosabatlarni baholash mezonidir. Bu baholash iqtisodiy, siyosiy, huquqiy yoki axloqiy bo‘lishi mumkin va hayotning barcha jabhalarida kechadigan ma’naviy munosabatlarda qo‘llaniladi. Adolat insoniyat ma’naviyati qadriyatlariniig oliy ko‘rinishlaridan biridir. “Adolat keng qamrovli falsafiy va axloqiy tushuncha bo‘lib, u ijtimoiy hayotda va kishilararo munosabatda muhim o‘rin egallaydi” [2;5-b.].

Odam dunyoga kelar ekan, u yashamoq uchun ham biologik, ham ma’naviy mavjudot sifatida o‘zida